Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	



TABIIY VA SUN'IY TOLALARNING EKOLOGIK TA'SIRI VA YASHIL ISHLAB CHIQUARISH TEXNOLOGIYALARIGA O'TISH BOSQICHLARI

Raximov Furqat Jalalovich

O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi rais maslahatchisi

TDIU tadqiqotchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri hayot aylanishi tahlili (LCA) asosida o'rganilgan. Xomashyo yetishtirishdan to chiqindiga aylanishgacha bo'lgan bosqichlar bo'yicha ularning resurs sarfi, chiqindi hajmi va toksiklik darajasi tahlil qilindi. Tabiiy tolalarning biologik parchalanish imkoniyati va sun'iy tolalarning texnologik ustunliklari o'zaro solishtirildi. Yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga bosqichma-bosqich o'tish imkoniyatlari aniqlanib, ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot sanoatda barqarorlikka erishish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tabiiy tolalar, sun'iy tolalar, ekologik ta'sir, LCA, yashil texnologiya, chiqindi, qayta ishlash, barqaror ishlab chiqarish.

Abstract: This article explores the environmental impact of natural and synthetic fibers using life cycle assessment (LCA). All production stages from raw material sourcing to disposal are analyzed in terms of resource consumption, waste output, and toxicity. The biodegradability of natural fibers is compared with the technological advantages of synthetics. Opportunities for transitioning to green production technologies are identified, and measures to reduce ecological risks are proposed. The study highlights the importance of a scientifically grounded approach to achieving sustainability in the textile industry.

Key words: natural fibers, synthetic fibers, environmental impact, LCA, green technologies, waste, sustainable production.

Аннотация: В данной статье рассматривается экологическое воздействие натуральных и синтетических волокон на основе анализа жизненного цикла (LCA). Проанализированы все этапы – от производства сырья до утилизации – по таким показателям, как потребление ресурсов, объем отходов и уровень токсичности. Сравнены биodeградация натуральных волокон и технологические преимущества синтетических. Выявлены возможности постепенного перехода к зелёным производственным технологиям и предложены пути снижения экологических рисков. Исследование подтверждает необходимость научно обоснованного подхода к устойчивому развитию текстильной промышленности.

Ключевые слова: натуральные волокна, синтетические волокна, экологическое воздействие, LCA, зелёные технологии, переработка, устойчивое производство.

KIRISH

Globalashuv va raqobat kuchaygan sanoat sharoitida to'qimachilik sohasi nafaqat iqtisodiy barqarorlikning, balki ekologik xavfsizlikning ham asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tola ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash va yakuniy mahsulot holatiga keltirish jarayonlarining atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiborida turibdi. Bu jarayonda ishlatiladigan asosiy resurslar – tabiiy va sun'iy tolalar – ekologik va texnologik mezonlar nuqtai nazaridan chuqur o'rganishni talab etadi.

Tabiiy tolalar o'zining qayta tiklanuvchanligi, biologik parchalanishi va inson salomatligiga xavfsizligi bilan e'tiborni tortadi. Shu bilan birga, ularning yetishtirilishida katta hajmdagi suv sarfi, agrokimyoviy vositalarga bo'lgan ehtiyoj, yer degradatsiyasi kabi ekologik muammolar mavjud. Boshqa tomondan, sun'iy tolalar yuqori texnologik samaradorlik va ishlab chiqarish hajmini tez kengaytirish imkoniyati bilan ajralib turadi, biroq ularning neft-gaz xomashyosiga asoslanganligi, toksik chiqindilar miqdori va qayta ishlashdagi murakkabliklari ekologik tahdid sifatida baholanadi.



Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro ishlab chiqarish tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, to'qimachilik sanoatini ekologik jihatdan barqaror yo'nalishga o'tkazishning eng samarali usuli bu – tabiiy va sun'iy tolalarning imkoniyatlarini integratsiyalashgan yondashuv asosida baholash va ularni yashil ishlab chiqarish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirishdir. Aynan shunday yondashuv orqali xomashyo tanlashdan tortib chiqindini qayta ishlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ekologik ta'sirni kamaytirish mumkin.

Mazkur tadqiqot ushbu muammolarni kompleks yondashuvda tahlil qilishga, tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik yuklamalarini solishtirma tahlil asosida baholashga, va ular asosida barqaror ishlab chiqarish modeliga o'tish strategiyalarini asoslab berishga qaratilgan. Shuningdek, hayot aylanishi tahlili (LCA) yondashuvi asosida ishlab chiqarishning har bir bosqichi uchun ekologik xavflarni aniqlash va ularni optimallashtirish yo'llarini ko'rsatish orqali, ushbu mavzu hozirgi davrning amaliy va ilmiy ahamiyatga ega dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qoraladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri masalasi zamonaviy to'qimachilik sanoatining eng dolzarb muammolar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sanoat jarayonlarini baholash, qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, va yashil transformatsiyaga o'tish ehtiyojini ochib bergan.

LCA – hayot aylanishi tahlili – ekologik baholashda asosiy metod sifatida keng qo'llanilmoqda. Hauschild va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan teoretik asoslar ushbu metodologiyaning sanoatdagi qo'llanma modeliga aylanishiga zamin yaratdi [6]. Bu modelni tekstil sanoatiga tatbiq qilish orqali, mahsulotning xomashyo yetishtirish bosqichidan to'utilizatsiyagacha bo'lgan har bir fazasida atrof-muhitga bo'lgan ta'sir aniqlanishi mumkin.

Gonzalez va boshqalar olib borgan tadqiqotda tabiiy (paxta, zig'ir) va sun'iy (polyester, najlon) tolalarning ishlab chiqarish va qayta ishlashdagi karbon izi, suv sarfi va toksik chiqindilar miqdori LCA yondashuvi asosida o'rganilgan. Natijalarda sun'iy tolalarning energiya sarfi yuqori, tabiiy tolalarning esa suv resursiga qaramligi asosiy muammo sifatida ajratilgan [4].

Slater [14] o'z ishida tabiiy tolalarning ijobiy ekologik ko'rsatkichlariga qaramay, ularni yetishtirishdagi agro-xavfsizlik bilan bog'liq kamchiliklar – pestitsidlar, defoliantlar, o'g'itlar – ni ta'kidlagan. Ayniqsa, paxtachilik sanoatida chuchuk suv tanqisligi bor davlatlarda bu muammo jiddiy tus olgan.

Shuningdek, Choudhury [2] va Islam [7] asarlarida tekstil bo'yoqlarining atrof-muhitga ta'siri keng yoritilgan. Bo'yoqlarning tarkibidagi kimyoviy birikmalar (formaldehid, og'ir metall tuzlari) chiqindi suvlar orqali tuproq va suv havzalarini ifloslantiradi. Ayniqsa, polyester kabi tolalarning bo'yoq tutib olish darajasi past bo'lganligi sababli, ortiqcha bo'yoqlar chiqindi suvlar tarkibida qoladi, bu esa suv tizimlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Muthu tomonidan nashr etilgan barqaror tekstil ishlab chiqarish bo'yicha qo'llanma [9], bu muammolarni texnologik nuqtai nazardan hal qilish uchun organik, biodegradatsiyalanadigan xomashyo, tabiiy bo'yoqlar, yopiq suv aylanishi tizimlari kabilarni taklif qiladi. Bunga javoban, Wang va hamkorlari tabiiy indigoni denim bo'yashda qo'llash tajribasini o'tkazib, bo'yoq samaradorligi va ekologik xavfsizlik o'rtasida ijobiy muvozanatni namoyish etgan [16].

Tabiiy va sun'iy tolalarning chiqindi holatidagi ta'siri ham keng muhokama qilinmoqda. Aldabahi [1] va Sandin [12] ishlarida qayta ishlanmagan sun'iy tolalar asosan mikroplastiklar shaklida tabiatda qolishi, va biologik parchalanmasligi sababli uzoq muddatli ifloslanish manbai ekanligi isbotlangan. Bunga qarshi, tabiiy tolalar tez va xavfsiz parchalanishi bilan ijobiy farqlanadi [5].

Shuningdek, Krifa va Gnanasekar [8] tabiiy tolalarning bozor raqobatbardoshligi va ekologik barqarorligini, shuningdek ularning global ta'minot zanjirlarida qayta tiklanuvchi resurs sifatidagi afzalliklarini ta'kidlagan. Biroq, ular ham ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun texnologik innovatsiyalar va ilmiy yondashuvlar talab qilinishini eslatib o'tadi.

Sandin va Peters [12] tomonidan berilgan takliflar ichida tekstil mahsulotlarini qayta ishlash, resirkulyatsiya va "second-life" foydalanish strategiyalari asosiy ekologik yechimlardan biri sifatida ko'rsatilgan. Bu texnologiyalar chiqindi miqdorini kamaytirish va karbon izini pasaytirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy va sun'iy tolalarning har biri turlicha ekologik yuklamaga ega, ammo ularni barqaror sanoatga yo'naltirish uchun ilmiy asoslangan texnologik o'zgarishlar, innovatsion ishlov berish usullari va resurslarni tejovchi ishlab chiqarish strategiyalari zarur [3], [4], [6], [9], [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI METODOLOGIYA

Tadqiqotda tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'sirini baholash va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlarini aniqlash uchun hayot aylanishi tahlili (LCA) metodologiyasidan foydalanildi. Tahlil ISO



14040 va ISO 14044 standartlariga asoslangan bo'lib, har bir tola turining hayotiy siklidagi (xomashyo, ishlab chiqarish, bo'yash, chiqindi) asosiy ekologik yuklamalari miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholandi [3], [4], [6].

Metod sifatida komparativ tahlil, ikkinlamchi ma'lumotlar tahlili, hamda texnologik xaritalash usullari qo'llanildi. Har bir bosqich uchun: energiya sarfi, suv iste'moli, issiqxona gazlari chiqishi, va toksiklik darajasi kabi indikatorlar tanlab olindi. Tahlillar mavjud ilmiy maqolalar, LCA modellari va xalqaro statistik ma'lumotlarga tayanib amalga oshirildi [1]–[16].

Mazkur metodologiya, keyingi bo'limda keltirilgan tahliliy natijalar asosini tashkil etib, turli tola turlarining sanoatdagi ekologik ustunlik yoki xavf omillarini aniqlashda ishonchli ilmiy asoslarga tayandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri bosqichma-bosqich tahlil qilinib, ularning sanoatdagi mavjud o'rni va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish imkoniyatlari baholandi. Har bir bosqich – xom ashyo manbasi, qayta ishlash, bo'yash, chiqindi va hayot aylanishi – alohida ilmiy mezonlar asosida baholandi. Analiz davomida mavjud adabiyotlar asosida energiya sarfi, chiqindilar hajmi, toksiklik darajasi, suv iste'moli va uglerod izlari aniqlanib, har ikki tola turining ta'siri aniq ko'rsatildi.

Paxta, zig'ir, jute kabi tabiiy tolalar resursga boy, qayta tiklanuvchi materiallar hisoblanadi. Biroq ularning ishlab chiqarilishi katta miqdorda suv sarfi va pestitsidlarga tayanadi. [4] va [14] ma'lumotlariga ko'ra, 1 kg paxta ishlab chiqarish uchun o'rtacha 1700–2000 m³ suv talab etiladi. Bu, ayniqsa, O'zbekiston, Hindiston, Pokiston kabi suv tanqisligi bo'lgan davlatlar uchun sezilarli ekologik muammo tug'diradi. Pestitsid va kimyoviy o'g'itlarning yirik hajmda ishlatilishi esa nafaqat yer, balki ichimlik suv resurslariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [4].

Boshqa tomondan, sun'iy tolalar (polyester, viskoza, najlon) fossil xomashyolardan olinadi. Ular xomashyo sifatida suvdan kamroq foydalanadi, ammo CO₂ chiqindilari, energiya sarfi va toksik ta'sir ko'rsatkichlari yuqori. [6] va [4]da keltirilishicha, polyester ishlab chiqarish jarayonida karbon izi paxtanikiga nisbatan 2–3 baravar yuqori. Bundan tashqari, neft qazib olish, transport va polimerizatsiya bosqichlarida yer degradatsiyasi va atmosfera ifloslanishi yuz beradi.

Tola ishlab chiqarilgandan so'ng, u yigirish, to'qish va ishlov berish jarayonlaridan o'tadi. Ushbu bosqichlarda elektr energiyasi sarfi, ishlab chiqarish chiqindilari va havo ifloslantiruvchi gazlar miqdori asosiy mezonlar sifatida tanlandi.

Tabiiy tolalar uchun bu jarayonlarda energiya sarfi o'rtacha darajada bo'lsa-da, mato tayyorlashda texnikasiga qarab farq qiladi. [6]da qayd etilishicha, ipak kabi nozik tolalarning ishlov jarayoni juda murakkab bo'lib, issiqlik, bug' va presslash kabi bosqichlar ekologik yuklamani oshiradi.

Sun'iy tolalar ayniqsa polyester, issiqlikka chidamli bo'lgani uchun yuqori haroratda ishlanadi. Bu esa energiya sarfi va karbon chiqindilarining ortishiga olib keladi. Polimerlar asosida tola hosil qilishda havo chiqindilari (SO₂, NO_x) va yerga singuvchi texnologik chiqindilar ko'pligi kuzatiladi [4], [6].

Tekstil sanoatidagi eng og'ir ekologik bosqichlardan biri bu – bo'yash jarayonidir. Ayniqsa, sun'iy bo'yoqlarning ishlatilishi bilan bog'liq muammolar dolzarbdir. [7] ma'lumotlariga ko'ra, ayrim azo-bo'yoqlarning parchalanmasdan suv resurslariga tushishi suv hayoti uchun xavfli hisoblanadi. Formaldegid, fenol, og'ir metall tuzlari kabi birikmalar suv ekotizimiga toksik ta'sir ko'rsatadi.

[2] va [7] ishlarida sun'iy bo'yoqlar ishlatilgan matolarda bo'yoq yutilish samaradorligi past bo'lib, ortiqcha bo'yoq chiqindi suvlar tarkibida qoladi, bu esa tozalash tizimiga katta bosim yuklaydi.

Bundan farqli, [16]da keltirilgan tabiiy indigoni denim matoga qo'llash misolida, biologik parchalanadigan, toksik bo'lmagan bo'yoqlarning suv iste'moli va ifloslanishini kamaytirishdagi afzalliklari aniq ko'rsatib berilgan. Shu sababli, yashil ishlab chiqarish uchun tabiiy bo'yoqlarga o'tish strategiyasi ekologik xavfsizlikni oshirishda muhim bosqich bo'lishi mumkin.

Tekstil sanoati bo'yicha olib borilgan so'nggi hisobotlarga ko'ra, har yili millionlab tonna mato mahsulotlari chiqindi sifatida utilitatsiya qilinadi. [12] da AQSHdagi statistik ma'lumotlarga asoslangan holda, har yili 208 million funtga yaqin tekstil chiqindisi hosil bo'lishi qayd etilgan. Shundan atigi 15% qayta ishlanadi, qolgan qismi esa chiqindixonalarda yo'q qilinadi yoki yondiriladi.

Tabiiy tolalar chiqindi holatiga kelgach, bioparchalanish xususiyatiga ega bo'lishi tufayli atmosferaga zararli gazlar chiqarmaydi, tuproqqa singib ketadi yoki kompost sifatida ishlatilishi mumkin [5].

Sun'iy tolalar, ayniqsa polyester, 100 yildan ortiq parchalanmaydi va ularning yondirilishi dioksinlar va mikrozararchalar ajralishiga olib keladi [1], [4]. Bu esa atmosfera va inson salomatligi uchun xavfli hisoblanadi. Bundan tashqari, mikroplastiklar suv tizimlariga o'tib, okean ifloslanishining asosiy sabablaridan biridir [4], [1].

Quyidagi jadval orqali tabiiy va sun'iy tolalarning hayot aylanishi davomida ekologik yuklamasi taqqoslandi:

1-jadval. Tabiiy va sun'iy tolalarning hayot aylanishi bosqichlarida ekologik ta'sir ko'rsatkichlari¹.

Bosqich	Tabiiy tolalar	Sun'iy tolalar	Tavsiyalar
Xomashyo yetishtirish	Suv va pestitsid sarfi yuqori [4], [14]	Neft xomashyosi, CO ₂ chiqishi [4], [6]	Organik paxtachilik, agrosanoat integratsiyasi [13]
Ishlov berish (yigirish)	O'rtacha energiya sarfi [6]	Yuqori energiya sarfi va emissiyalar [6]	Kam energiyali jarayonlar, robotlashtirish
Bo'yash jarayoni	Pestitsidli chiqindi suv [7]	Toksik moddalar, og'ir metallar [7]	Tabiiy bo'yoqlar, yopiq suv aylanish tizimi [16]
Chiqindi bosqichi	Bioparchalanish mumkin [5]	Mikroplastik chiqadi [1], [12]	Qayta ishlash, biologik parchalanadigan sun'iy tolalar

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri turlicha bo'lishiga qaramay, ularning har biri zamonaviy to'qimachilik sanoatida muhim strategik resurs sanaladi. Ushbu tolalar sanoat jarayonlarida nafaqat iqtisodiy ahamiyatga, balki ekologik barqarorlikka ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida ham e'tiborga olinmoqda.

Tabiiy tolalar qayta tiklanuvchanligi, biologik parchalanishi va gigienik qulayligi bilan ijobiy baholanadi. Shu bilan birga, ularni yetishtirishdagi suv sarfi va agrokimyo vositalariga bo'lgan ehtiyoj ularni yanada ekologik toza shaklda ishlab chiqarish zaruratini yuzaga chiqaradi. Bu yo'nalishda organik qishloq xo'jaligi asosidagi paxtachilik, tabiiy o'g'itlar va agroteknik tadbirlar muhim yechimlardan biri sifatida ko'riladi.

Sun'iy tolalar ishlab chiqarishda yuqori texnologik samaradorlikka ega bo'lib, mustahkamlik, elastiklik va uzoq muddatga chidamlilik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ularning xomashyo manbai bo'lgan neft va gaz resurslari, hamda ishlab chiqarishdagi yuqori energiya sarfi global iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, biologik parchalanadigan sintetik materiallar, qayta ishlashga yaroqli polimerlar va past energiyali ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Sanoatda barqarorlikka erishish uchun ilmiy yondashuv asosida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni joriy etish zarur:

- Tabiiy tolalarni ekologik toza agroteknologiyalar asosida yetishtirish,
- Ishlab chiqarish va bo'yash bosqichlarida toksik moddalardan voz kechish,
- LCA (hayot aylanishi tahlili) yondashuvini ishlab chiqaruvchilarning qaror qabul qilish jarayonlariga tatbiq etish,
- Chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan yopiq aylanishli texnologiyalarni kengaytirish,
- Biobozil va qayta ishlanadigan materiallarga asoslangan mahsulot dizaynini rivojlantirish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Bu yondashuvlar tabiiy va sun'iy tolalar o'rtasidagi mavjud muvozanatni saqlagan holda, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va sanoat raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Barcha bosqichlarda innovatsion, ilmiy asoslangan va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyalarni amalga oshirish orqali to'qimachilik sanoatining global barqarorlik tamoyillariga muvofiq rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aldabahi, A., El-Naggar, M. E., El-Newehy, M. H., Rahaman, M., Hatshan, M. R., & Khattab, T. A. (2021). Effects of technical textiles and synthetic nanofibers on environmental pollution. *Polymers*, 13(1), 155. <https://doi.org/10.3390/polym13010155>
2. Choudhury, A. K. R. (2014). Environmental impacts of the textile industry and its assessment through life cycle assessment. In S. S. Muthu (Ed.), *Roadmap to sustainable textiles and clothing* (pp. 1–39). Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-287-110-7_1
3. Finkbeiner, M., Schau, E. M., Lehmann, A., & Traverso, M. (2010). Towards life cycle sustainability assessment. *Sustainability*, 2(10), 3309–3322. <https://doi.org/10.3390/su2103309>
4. Gonzalez, V., Lou, X., & Chi, T. (2023). Evaluating environmental impact of natural and synthetic fibers: A life cycle assessment approach. *Sustainability*, 15(9), 7670. <https://doi.org/10.3390/su15097670>
5. Gutarowska, B., & Michalski, A. (2012). Microbial degradation of woven fabrics and protection against biodegradation. In *Microorganisms in Industry and Environment* (pp. 187–194). InTech. <https://doi.org/10.5772/50378>
6. Hauschild, M. Z., Rosenbaum, R. K., & Olsen, S. I. (2018). *Life cycle assessment: Theory and practice*. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-56475-3>
7. Islam, M. T., Repon, M. R., Kabir, S. M., & Khan, M. A. (2022). Synthetic dyes for textile colouration: Process, factors

¹ Muallif ishlanmasi



- and environmental impact. *Textile & Leather Review*, 5(1), 327–373. <https://doi.org/10.31881/TLR.2022.27>
8. Krifa, M., & Gnanasekar, V. K. (2020). Perspectives on natural fibers' competitiveness and sustainability. *Fibers*, 13(1), 14. <https://doi.org/10.3390/fib13010014>
 9. Muthu, S. S. (Ed.). (2015). *Handbook of sustainable apparel production*. CRC Press. <https://doi.org/10.1201/b18414>
 10. Pellengahr, F., Sandin, G., & Peters, G. M. (2023). Modeling marine microplastic emissions in life cycle assessment. *Environmental Modelling & Software*, 156, 105471. <https://doi.org/10.1016/j.envsoft.2022.105471>
 11. Roy Choudhury, A. K. (2015). Sustainable chemical technologies for textile production. In *Sustainable Fibres and Textiles* (pp. 293–329). Woodhead Publishing. <https://doi.org/10.1016/B978-0-08-102041-8.00011-0>
 12. Sandin, G., & Peters, G. M. (2018). Environmental impact of textile reuse and recycling – A review. *Journal of Cleaner Production*, 184, 353–365. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.02.266>
 13. Selvakumar, S., Muthuraman, C., & Kumaran, R. J. (2023). Impact of different nutrient management strategies on growth, yield components and yield of coloured cotton. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 2(1), 1544696. <https://doi.org/10.3389/fsufs.2022.1544696>
 14. Slater, K. (2003). *Environmental impact of textiles: Production, processes and protection*. Woodhead Publishing. <https://doi.org/10.1533/9781855738607>
 15. Thakur, V., Ranjan, S., & Mandal, B. (2022). Microbial degradation of textile dyes: A review. *Frontiers in Toxicology*, 3, 1494220. <https://doi.org/10.3389/ftox.2021.1494220>
 16. Wang, K., Liu, Y., & Fang, X. (2023). Nitrogen-mediated dyeing of denim with natural indigo: Toward sustainable and efficient coloration. *SSRN Electronic Journal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.5047517>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
